

**SHAHARLARARO YO'LOVCHI TASHISH XIZMATINI TASHLIK ETISH
AVTOMATLASHGAN AXBOROT TIZIMI MODELI VA DASTURIY
TA'MINOTINI ISHLAB CHIQISH**

Qurbonov Nazriddin Nazir o'g'li

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti,

«Amaliy matematika va intellektual texnologiyalar» fakulteti 2-bosqich magistranti

E-mail: qurbonovnazriddin@gmail.com

Tel: +998934972330

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot ishida transport tashkilotlari va mijozlar o'rtasida o'zaro ishonchli, tezkor, sifatli hamkorlikni ta'minlovchi, transport-logistika tizimidagi ish yuritish jarayonlarida qo'llaniladigan hujjatlarni elektronlashtirish, transport kompaniyalari, haydovchilar, mijozlar va dispetcherlar uchun avtomatlashgan axborot tizimini taqdim etish va bu orqali transport kompaniyalari ish yuritishni samarali, raqobatbardoshligini ta'minlaydigan, foydalanish uchun qulay bo'lgan avtomatlashtirilgan axborot tizimini ishlab chiqish. Shuningdek, tizimda faoliyat yuritayotgan xodimlarning mehnat samaradorligini oshirish, ularni nazorat qilish mexanizmlarini ishlab chiqish uchun imkon yaratadi.

Kalit so'zlar: dasturiy ta'minot, marshrutlar, viloyatlar, intellektual tahlil, matematik model, algoritm, vazn.

Bugungi kunda o'zimizning shaxsiy ehtiyojimiz yoki boshqa yumush sababli o'zimiz turgan joydan boshqa bir joyga borib-kelish, yuk va shunga o'xshagan narsalarni bir manzildan boshqa manzilga ko'chirishga ehtiyoj sezamiz. Inson o'z ehtiyojini qondirish maqsadida o'ziga qulay bo'lgan yo'lni tanlaydi va unga qarab intiladi.

O'zbekistonda ayni vaqtda dolzarb bo'lgan mavzulardan biri bo'lmish, shaharlararo yo'lovchi tashish xizmati bilan shug'ullanayotgan kompaniyalar, ularning yuridik va jismoniy shaxs bo'lgan mijozlari, yo'lovchilarning o'zaro munosabatlarini shakllantiruvchi tizim asosiy axborotlashtirish obyekti hisoblanadi. Biz o'zimiz turgan kordinatadan O'zbekiastonning istalgan hududiga borishimiz, yuk xizmati, taksi xizmati va shunga o'xshash ishlarni amalga oshirishimiz bir qancha qiyinchiliklarga va noqulayliklarga olib kelardi, ushbu dasturiy ta'miot bizga yuqorida aytib o'tilgan muammolarning yechimlarini yechishda ijobiy ahamiyat kasb etib, xizmat qiladi. Ushbu tizim foydalanuvchilarga ancha qulayliklarni o'zi bilan olib keladi.

Axborot tizimini yaratilish maqsadi quyidagilardan iborat:


Tadqiqot davomida 13 ta(viloyat va respublika) hududini monitoring qilish uchun informatsion xususiyatlarni tanlash usuli ko'rib chiqildi. Bir nechta sinf (hudud)

obyektlarining namunalarini solishtirish uchun nominal xususiyatning gradatsiyalaridan bo‘shliqlar yaratish amalga oshiriladi. Axborot tizimini rivojlantirishda amaldagi texnologik yechimlar boshqa axborot tizimlari yoki dasturiy mahsulotlar bilan integratsiya yechimlarini amalga oshirish uchun imkoniyat yaratib beradi. Tizimni ishlab chiqish ochiq arxitektura prinsipi asosida amalga oshirilishi, bu bilan boshqa axborot tizimlari bilan o‘zaro ishlash imkoniyati hosil bo‘ladi.

Axborot tizimi geografik jihatdan bir-biridan uzoq obyektlarda joylashgan foydalanuvchilarning tizimda ishlashini ta‘minlab beradi. Axborot tizimi samaradorligini ham, funksional tarkibini ham bosqichma-bosqich oshirish imkoniyati ta‘minlangan bo‘ladi.

Tadqiqotning vazifalari:

– Mijozlar kerakli manzilga tezkor, arzon, qulay va ishonchli tarzda yetkazish xizmatlarini ko‘rsatuvchi elektron platformani taqdim etish (mobil ilova orqali xizmatlarni taqdim etish);




1-рasm. Yo‘lovchilarni tashishning sxematik ko‘rinishi.


- Yo‘lovchilarga buyurtma berish imkonini beruvchi platforma taqdim etish;
- Tashuvchilarga yo‘lovchi buyurtmalarini qabul qilish imkonini beruvchi platforma taqdim etish;
- Mashinalarning texnik ko‘rikdan o‘tkazilishini qayd etish;

Mobile dasturning ishlash tamoyillari

Telefon raqam kiritiladi va kelgan sms xabar orqali tasdiqlanib tizimga kirish mumkin bo'ladi




Foydalanuvchi accountini yaratish, o'zgartirish va uni ustiga amallar bajarish




Bosh sahifa qismi




Turgan pozitsiya va borish kerak bo'lgan joyni belgilash jarayoni



Transport tanlash sahifasi va u bilan bog'lanish



To'lov turlari va uni amalga oshirish



Xulosa qilib aytganda, ushbu loyiha har ikki tomon(mijoz va tashkilotlar) uchun manfaat keltiribgina qolmay, o'zining ko'p funksiyaliligi bilan ko'pgina savollarga javob bo'ladi desak mubolag'a bo'lmaydi. Tizimdan foydalanish orqali foydalanuvchilar o'zlarining samarali ehtiyojlarini samarali ravishta qondirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Axborot tizimidan logistika tizimi foydalanuvchilari ish rejimi ularning lavozim yo'riqnomalariga muvofiq tartibga solinadi. Bunda transport tashkiloti administratori, dispetcheri, hamshiralari va mexaniklari o'zlarining kunlik ish rejimi bo'yicha tizimdan foydalanishi tashkil etiladi. Axborot Tizimiga xizmat ko'rsatuvchi foydalanuvchi reestrini yuritish, foydalanuvchilarning tizimga kirish huquqi va shaxsiy parametrlarini tayinlash hamda ularning tizimdagi harakatlarini audit qilish uchun mo'ljallangan. Shuningdek, bu panelda tizimning to'laqonli ishlashini ta'minlanishi uchun qo'shimcha modul va funksiyalar ham ishlab chiqilishi mumkin.

Yo'lovchilar, bagaj, yuk bagaji, yuklar, pochta va kurerlik jo'natmalarining olib o'tilishi va tashilishini tashkil qilish bilan bog'liq vazifalarning kompleks va o'zaro bog'liqligini hal etadi.

Foydalanilgan manbalar:

1. M.X.Hakimov,S.M.Gaynazarov "Berilganlar bazasini boshqarish tizimlari"
2. A.Radjabov, A.D.Raxmatov, A.X.Vohidov. Mutaxassislikka kirish. T., 2008, 82-b.
3. A.T.Turabayev, M.X.Axmedova. «Mutaxassislikka kirish» fanidan
4. ma'ruzalar to'plami, 2003, 49-b.
5. В.Ф. Максимов, Г.В. Стадницкий. Введение в специальность.
6. <https://yandex.uz/maps/10335/tashkent/?ll=69.272516%2C41.302624&z=1>
1.7